



MILLIY QADRIYATLARNI SINGDIRISH UCHUN IJTIMOY MUHITNI SHAKLLANTIRISH

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
“Psixologiya (Social Psychology)” yo‘nalishi
2-kurs magistranti

Yarashova Sitora Yermamatovna
E-mail. @sittoras2501

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlarni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida bolalarda milliy g‘urur, milliy o‘zlikni anglash hamda Vatanga muhabbat tuyg‘ularini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiy muhit — oila, maktabgacha ta’lim tashkiloti va tengdoshlar guruhining milliy qadriyatlarni singdirishdagi o‘rni ochib berilgan. Maqolada milliy qadriyatlarni faoliyat, muloqot va ijtimoiy tajriba orqali o‘zlashtirish mexanizmlari, shuningdek, emotsional muhit, shaxsiy namuna va izchillik omillarining ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, ijtimoiylashuv, milliy qadriyatlar, ijtimoiy muhit.

Kirish. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida ham maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g‘ururni shakllantirish, milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini rivojlantirish, milliy, umuminsoniy, tarixiy an‘analarga va o‘zbek xalqining intellektual merosiga bo‘lgan ijobiy munosabatning shakllantirish lozimligi ko‘rsatilgan. “Ilk qadam” dasturiga muvofiq maktabgacha ta’lim tashkilotlarining katta yosh (5 yoshdan 6 yoshgacha) guruhlarida nutq va tafakkurni rivojlantirish masalalari yuzasidan Vatanga muhabbat hissini shakllantirish, tevarak-atrofdagi yodgorliklar, tarixiy obidalar bilan tanishtirish ishlari olib boriladi, ya’ni Vatanimizdagi tarixiy yodgorliklar aks ettirilgan miniatyuralar, rangli rasmlar va albomlar bilan tanishtiriladi. Bolalarda tasviriy san’at namunasi mazmunini anglashga oid ko‘nikma va malakalar shakllantirib boriladi, dekorativ naqshlar bilan tanishtiriladi. Dasturda maktabga tayyorlov (6 yoshdan 7 yoshgacha) guruhlarida nutq va tafakkurni rivojlantirish masalari yuzasidan bolalarning shuuriga Vatan tuyg‘usini singdirish, ularda xalq, millat, yurt haqida tasavvur uyg‘otish, ma’nan rivojlantirishda bolalar tevarak-atrofdagi yodgorliklar, tarixiy obidalar haqida ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishlari lozimligi ko‘rsatilgan. Bular maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy g‘ururni shakllantirishning dastlabki ko‘nikmalari hisoblanadi. Ularni rivojlantirish, takomillashtirish bugungi kunda maktabgacha ta’lim



tashkilotlarida faoliyat ko'rsatayotgan tarbiyachilarning pedagogik mahoratiga bog'liq. Xususan, tevarak-atrof bilan tanishish, tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida me'morlik ob'ektlari haqidagi materiallarni bolalarbop tarzda taqdim etish ularda atrof-muhit haqida, jumladan me'moriy obidalar haqida tasavvurlarni tarkib toptirib boradi. Shuning uchun ham tarbiyachining mashg'ulotga puxta tayyorgarlik ko'rishi bolalarda me'moriy obidalar vositasida milliy g'urur elementlarini shakllantirishning muhim shartidir.

Davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan fuqarolarda milliy qadriyatlarni shakllantirish, ularda Vatan tuyg'usini tarkib toptirishga intilishning zamirida vatanimizning nurli kelajagi uchun munosib vorislar tayyorlash maqsadi yotadi. Ushbu nuqtai nazardan yosh avlodda o'zi tug'ilib o'sgan shahar, qishloq, mavze, mahalla bilan faxrlanish tuyg'usini tarkib toptirishda tarixiy obidalar o'rganish yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega. Milliy qadriyat elementlarini maktabgacha ta'lim bosqichidanoq shakllantirish zaruriyatining mavjudligi maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlik darajasiga qo'yiladigan davlat talablari, Maktabgacha tarbiya konsepsiyasi kabi me'yoriy hujjatlar va "Ilk qadam" dasturida ilgari surilgan asosiy vazifalar tarkibiga kiradi.

Milliy qadriyatlarning bolalar ongida shakllanishi va mustahkamlanishi tasodifiy jarayon emas, balki muayyan ijtimoiy muhit ta'sirida yuzaga keladigan murakkab ijtimoiy-psixologik jarayondir. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri shaxsning ijtimoiylashuvi va axloqiy me'yorlarni o'zlashtirishida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda bola atrofidagi ijtimoiy muhit oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti, tengdoshlar hamda ommaviy axborot vositalari orqali milliy qadriyatlar bilan tanishadi va ularni ichki ehtiyoj sifatida qabul qila boshlaydi.

Asosiy qism. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishida ijtimoiy muhit hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, milliy qadriyatlarning singdirilishi jarayoni bevosita bolaning atrofidagi ijtimoiy muhit oila, ta'lim tashkiloti, tengdoshlar guruhi va kengroq ijtimoiy makon bilan uzviy bog'liqdir. Shu bois, bolalarda milliy qadriyatlarni shakllantirish uchun mos ijtimoiy muhitni yaratish muhim pedagogik va psixologik vazifa sifatida namoyon bo'ladi. Lev Vygotsky nazariyasiga ko'ra, bola rivojlanishi ijtimoiy muhit orqali amalga oshadi va har qanday psixik jarayon avvalo ijtimoiy darajada shakllanib, keyinchalik individual darajaga ko'chadi. Bu fikr milliy qadriyatlarning ham avvalo ijtimoiy muhit orqali berilishini ilmiy asoslaydi. Shuningdek, Albert Bandura ijtimoiy o'rganish nazariyasida bolalar kuzatish va taqlid orqali xulq-atvorni o'zlashtirishini ta'kidlaydi. Demak, agar bola milliy qadriyatlarga asoslangan muhitda bo'lsa, u ushbu qadriyatlarni tabiiy ravishda o'zlashtiradi.



Yuqoridagi fikr-mulohazalar milliy qadriyatlar va ularning ijtimoiylashuvdagi o'rnining qay darajada ekanligini yaqqol izohlab turibdi. Aslida, milliy qadriyatlar bu jamiyat tomonidan e'tirof etilgan, tarixiy shakllangan, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan axloqiy, madaniy va ijtimoiy me'yorlar tizimidir. Ular kattalarga hurmat, kichiklarga mehr, mehmondo'stlik, halollik va adolat hamda hamkorlik odob-axloq qoidalarini o'z ichiga oladi.

Mazkur qadriyatlar bolaning ijtimoiylashuv jarayonida asosiy yo'naltiruvchi mezon bo'lib xizmat qiladi. Bola aynan shu qadriyatlar orqali jamiyatda qanday yashash, qanday munosabatda bo'lish va qanday xulq-atvorni tanlashni o'rganadi.

Milliy qadriyatlarni singdirishda ijtimoiy muhitning tarkibiy qismlari bir nechta. Oilaviy muhit ularning orasida 1- o'rinda ta'kidlanadi. Oilada ota-onaning shaxsiy namunasining ahamiyati juda katta. Agar ota-ona milliy qadriyatlarga amal qilsa, bola ham bu xulqni qabul qiladi. Aks holda, og'zaki tarbiya samarasiz bo'lishi mumkin. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti ham bolaning milliy qadriyatlar asnosida ijtimoiylashishida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalar uchun ijtimoiylashuvning muhim bosqichidir. Jamoada ishlash, navbat kutish, nizolarni tinch hal qilish va o'zaro hurmat kabi ko'nikmalari aynan shu maskanda shakllanadi. Tengdoshlar bilan muloqot qilish jarayonida ham bola o'z xulq-atvorini sinab ko'radi va mustahkamlaydi. Bu jarayonda hamkorlik, raqobat, murosaga kelish hamda o'zaro yordam kabi ijtimoiy xatti-harakatlar shakllanadi. Agar guruh muhiti sog'lom bo'lsa, milliy qadriyatlar tezroq singadi.

Milliy qadriyatlarni samarali singdirish uchun ijtimoiy muhit quyidagi talablarga javob berishi lozim:

1. Qadriyatga yo'naltirilgan muhit

Muhitda milliy qadriyatlar ochiq namoyon bo'lishi kerak (masalan, salomlashish, hurmat, tartib). Bola taqlid qilish orqali sekin astalik bilan bu qadriyatlarni o'zlashtiradi.

2. Shaxsiy namuna

Kattalar (ota-ona, tarbiyachi) o'z xatti-harakatlari orqali qadriyatlarni ko'rsatishi zarur. Bu bola uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi uslub. Sababi bolaning xotirasida ko'p takrorlangan so'zlar o'rnida amaldagi hodisalar tez o'zlashadi. Bu jarayonlar ayniqsa maktabgacha yoshda faol kechadi.

Milliy qadriyatlarni singdirishga yo'naltirilgan ijtimoiy muhitning samaradorligi bir qator ichki va tashqi omillarga bog'liq bo'lib, ular o'zaro uyg'unlikda namoyon bo'lgandagina kutilgan natijaga erishish mumkin. Ushbu omillarni tizimli ravishda tashkil etish bolalarda ijtimoiy xulq-atvorning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.



Avvalo, ijtimoiy muhitning emotsional jihatdan qulayligi muhim ahamiyatga ega. Agar bola o'zini xavfsiz, qo'llab-quvvatlangan va qadrli his qilsa, u atrof-muhitdagi qadriyatlarni osonroq qabul qiladi. Aksincha, qo'rquv, bosim yoki befarqlik hukmron bo'lgan muhitda qadriyatlarni singdirish jarayoni sustlashadi. Shu bois, mehr-muhabbatga asoslangan muhit milliy qadriyatlarning ichkilashtirilishida asosiy shartlardan biri hisoblanadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy muhitda izchillik va bir xil talablarning mavjudligi muhimdir. Ya'ni, oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti tomonidan berilayotgan tarbiyaviy ta'sir bir-biriga zid bo'lmasligi kerak. Agar bola bir joyda hurmat, tartib va odobga o'rgatilsa, boshqa muhitda esa bunga amal qilinmasa, unda bola ongida qarama-qarshilik yuzaga keladi. Natijada qadriyatlar mustahkam shakllanmaydi.

Shuningdek, ijtimoiy muhitda faol kommunikatsiya va ijtimoiy tajriba almashinuvi muhim rol o'ynaydi. Bola kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish jarayonida milliy qadriyatlarning mazmunini chuqurroq anglaydi. Ayniqsa, savol-javoblar, muhokamalar, vaziyatli topshiriqlar orqali bola o'z fikrini ifodalash va boshqalar fikrini tushunishni o'rganadi. Bu esa qadriyatlarning ongli ravishda o'zlashtirilishiga olib keladi.

Yana bir muhim omil faoliyat orqali o'rgatish tamoyilidir. Milliy qadriyatlar faqat og'zaki tushuntirish orqali emas, balki amaliy faoliyat jarayonida samarali singdiriladi. Masalan, mehmondo'stlik haqida gapirishdan ko'ra, uni rolli o'yin orqali namoyish qilish; hurmat haqida tushuntirishdan ko'ra, kundalik vaziyatlarda uni qo'llash samaraliroq natija beradi. Shu tarzda bola qadriyatlarni nafaqat tushunadi, balki amalda qo'llashni ham o'rganadi.

Xulosa. Ijtimoiy muhitni shakllantirishda milliy-madaniy komponentlarning mavjudligi alohida ahamiyat kasb etadi. Muhitda milliy an'analar, ramzlar, urf-odatlar va xalq og'zaki ijodi elementlarining bo'lishi bolalarda milliy identitetni rivojlantiradi. Masalan, milliy ertaklar, maqollar, bayramlar va marosimlar orqali bolalar o'z xalqining qadriyatlari bilan tanishadi va ularni qadrlashni o'rganadi.

Natijada, milliy qadriyatlarga asoslangan ijtimoiy muhitni samarali shakllantirish uchun emotsional qo'llab-quvvatlash, izchillik, faol muloqot, amaliy faoliyat va milliy-madaniy boyliklardan foydalanish kabi omillarni kompleks tarzda amalga oshirish talab etiladi. Bunday muhitda tarbiyalangan bolalarda nafaqat ijtimoiy moslashuv, balki milliy o'zlikni anglash va qadriyatlarga sodiqlik ham shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2018.



2. O‘zbekiston Respublikasi. Maktabgacha ta’lim konsepsiyasi. – Toshkent, 2017.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. – Toshkent, 2017.
4. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
5. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977. – 247 p.
6. Ismoilova N., Abdullayeva D. Ijtimoiy psixologiya: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2013. – 168 b.
7. Andreyeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. – Moskva: Aspekt Press, 2001. – 384 s.
8. Kon I.S. Sotsiologiya lichnosti. – Moskva: Politizdat, 1967. – 384 s.